

RAQS OLAMI

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi nashri

Gazeta 2020-yildan chiqarib boshlagan.

MA’NAVIY-MA’RIFIY GAZETA

2021-yil/Iyun

2021-YIL — YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI



AKADEMIYAMIZDA

II XALQARO TALABALAR ILMIY-AMALIY ONLAYN-KONFERENSIYASI BO‘LIB O‘TDI

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida “O‘zbek milliy raqs san‘atini targ‘ib qilishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to‘plamini yaratish” innovatsion loyihasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Moskva davlat lingvistik universiteti, Janubiy Qozog‘iston davlat pedagogika universiteti va O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamkorligida “San‘at va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” II Xalqaro talabalar ilmiy-amaliy onlayn-konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Uni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining rektori Shuhrat Toxtasimov ochib, ilmiy anjumanning

raqs san‘ati rivoji yo‘lidagi dadil odimlardan biri ekanini va ushbu anjumanda ishtirok etayotgan barcha xorijiy mutaxassislar, yosh izlanuvchilar hamda talabalarga anjumandagi ishtiroki uchun minnatdorchilik bildirdi.

Shuningdek, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari, senator Minhojiddin Hojimatov “Milliy o‘zlik tuyg‘usi va yoshlar ma’naviyati” mavzusida ma’ruza qilib, milliy o‘zlikni anglash bugungi kun yoshlari

ma’naviyatining yuksalishiga qaratilgan eng dolzarb masala ekanini ta’kidladi.

O‘zbekiston xalq artisti, O‘zDXA o‘qituvchisi Gavhar Matyoqubovning To‘qqiz “Lazgi – to‘qqiz tarixiy obida”, Janubiy Qozog‘iston davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi, filolog Shahlo Naraliyevaning “Qadriyatlar integratsiyasi: Qozog‘iston o‘zbeklarining milliy raqs san‘ati”, Moskva davlat lingvistik universiteti talabasi Mariya Shatovaning “Uzbekskie na-

циональные танцы”, Turkiya davlati Kastamonu universiteti magistri Sanjar Said “O‘zbek – turk madaniy aloqalari” mavzusidagi maqolalari va ko‘plab o‘zbekistonlik talabalarining ilmiy maqolalari ushbu konferensiyaning ilmiy to‘plamida e‘lon qilindi. Eng yaxshi ilmiy maqola mualliflari diplom, sertifikat va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

O‘zDXA Matbuot xizmati



Shahlo NARALIYEVA,
Janubiy Qozog‘iston davlat pedagogika universiteti Xalqaro hamkorlik va akademik mobillik boshqarmasining bosh mutaxassisi, filolog

Inson bolasining komillikka intilishi, avvalo, uning o‘z tarixi, milliy qadriyatlarini bilishi, undan faxrlanib yashashida namoyon bo‘ladi. Raqs san‘ati esa inson tafakkurining mevasi sifatida, uning dunyoni anglashi va tevarak-atrofidagi milliy-madaniy muhit ta’siridagi his-tuyg‘ularni o‘z harakatlari orqali ifodalash ehtiyoji natijasida yuzaga kelgan nazokatli san‘atdir.

Davruga o‘zgacha mazmun baxsh etgan nutq Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari, iste’dodli shoir Minhojiddin Mirzoning otashin, samimiy, latif she’riy misralar-la sayqal berilgan go‘zal fikrlari ishtirokchilarni zavqlantirdi, rag‘batlantirdi.

Deyarli uch soat davom etgan konferensiyada so‘z olgan barcha ma’ruzachilar, jumladan O‘zMU professori, filologiya fanlari doktori, Yevropa Tabiiy fanlar akademiyasi akademigi Ra’no Sayfullayeva, Qozog‘-o‘zbek etno-madaniy birlashmalari, “Do‘stlik” hamjamiyati raisi Ikrom Hoshimjonov, Chikent

shahri 53-umumta’lim maktabi o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi Salimjon G‘aniyev, Baku-slavyan universiteti professori f.f.d. Musayeva, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, f.f.n. Rustam Sharipov, Moskva davlat lingvistik universiteti talabasi Mariya Shatova, Qo‘rqit ota nomidagi Qizil O‘rda davlat universiteti o‘qituvchisi Asel Idrisova, Yunus Rajabiy nomli O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti talabasi Shohrux Rahimov kabi ishtirokchilar o‘z tadqiqot, tajribalari bilan o‘rtoqlashib, barchaning ko‘nglidan joy oldilar. Fursatdan foydalanib, sermazmun, natijali anjumanning barcha tashkilotchi, ishtirokchilarga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz!

Zero, adabiyot va san‘at millat tanlamaydi! Adabiyot va san‘at xalqaro do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ezgu sohadir! Shunday ekan, do‘stona hamkorligimiz bardavom bo‘lsin, azizlar!

Xoreografiya akademiyasining foyesidan bayram shukuhini baxsh etgan Yunus Rajabiy nomli O‘zbek milliy musiqa san‘ati institute talabalarining jonli ijrosidagi jozibali kuy-qo‘shiq, raqslari bilan boshlangan mazkur anjuman tom ma’noda san‘at bayramiga aylandi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi! Akademiya rektori ham masofadan, ham yuzma-yuz tashkil etilgan ushbu xalqaro konferensiya ishtirokchilariga, shuningdek, zaldagi mehmonlarni samimiylik ila olqishlab, anjuman ishiga safarbarlik tiladi.

AKADEMIYA TALABALARI

Teatr qurbonlik talab qiladi, lekin bu tabiiy hol. Ya'ni, teatr odamining unga hamma narsasini bag'ishlashi tabiiy. Chunki u teatr uchun tug'iladi. Teatr — bu muqaddas qadamjoldardan biri sanaladi. Biz teatrdan ibrat, odob-axloqni o'rganamiz. Undagi ishchilar esa zulmatda yorug'likni, g'afolatda bedorlikni, g'amda hamdardlikni namoyish etib kelgan...

BARHAYOT, SO'NMAK ISTE'DOD

Xotira



Shunday jonkuyar insonlardan biri Bahodir Tursunovich Yo'ldoshev edi. Yer yuzining sayqali, ilm ma'rifat o'chog'i bo'lgan shahri azim Samarqandning Kattaqo'rg'on shahrida 1945-yil 7-sentyabrda san'atkorlar oilasida tug'ildi. O'rta maktabni tugatgandan so'ng Toshkent teatr rassomchilik institutida rejessyorlik mutaxassisligi bo'yicha tahsil oldi. Mehnat faoliyatini O'zbek davlat akademik teatri (hozirgi O'zbek Milliy akademik katta teatri) artisti lavozimida boshladi. Yigirma yetti yoshida ushbu nufuzli teatrga bosh rejessyor hamda badiiy rahbar etib tayinlandi. O'n uch yil davomida jamoada ishchan muhit yaratish, teatr repertuarini zamonaviy hamda mumtoz asarlar bilan boyitish, iqtidorli iste'dodli yoshlarni tarbiyalashga ulkan hissa qo'shdi. B.Yo'ldoshev san'atni chin dildan sevgan, unga sadoqat bilan xizmat qilish o'z hayotining ma'no-mazmuni deb bilgan.

Yorqin istedod sohibi O'zbek rejessyorlik san'atida o'z ijodiy maktabini yaratdi. B. Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan "Abu Rayhon Beruniy", "Ibn Sino", "Iskandar", "Nodirabegim", "Maysaraning ishi", "Yulduzli tunlar", "Farmonbibi arazladi", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Checha", "Arshin mol olon" kabi o'nlab dramatik asarlarni millionlab san'atga oshno qalblarning to'ridan joy olib, teatr san'atining oltin fondini boyitdi hamda o'rin egalladi. Bu asarlarni tomosha qilganda bexosdan yuzingizga tabassum, qalbingizda esa allaqanday his tuyg'ular jo'sh uradi.

Ijodkor asarlar yaratish bilan cheklanib qolmadi, u teatr san'atida yangicha uslub, yangicha qarashlar bilan ijodkorlarni

tarbiyalaydigan "Diydor" yoshlar eksperimental teatr studiyasini 2009-yilda tashkil etib unga rahbarlik qilib keldi. B.Yo'ldoshev rejessyorlik salohiyatining yorqin namunalari sifatida biz, dunyoga mashhur "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali, Xalqaro baxshichilik san'ati, Xalqaro maqom san'ati anjumani hamda yurtimizdagi keng nishonlanib kelinadigan milliy umum xalq bayramlarini misol keltirishimiz mumkin.

B.Yo'ldoshevning milliy san'atimiz va madaniyatimizni rivojlanish yo'lidagi ulkan xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi", hamda "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti", "Mehnat shuhrati", "Fidokorona xizmatlari uchun", "El yurt xizmati", "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari bilan mukofotlangan edi.

Yuz yilda bir dunyoga keladigan bunday ijodkorlar san'atimiz madaniyatimiz, milliy qadiryatlarimizni boricha dunyo yuziga olib chiqishdagi xizmatlari beqiyosdir. Milliy teatr san'atimiz va madaniyatimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk va betakror iste'dod sohibi, atoqli rejessyor, ustoz san'atkor, O'zbekiston san'at arbobi, Xalq artisti Bahodir Tursunovich Yo'ldoshev shu yil 16-may kuni 76 yoshida bu dunyoni tark etdi. Xalqimizning buyuk san'atkor farzandi, betakror shaxs, samimiy va kamtarin inson yoshlarning mehribon va talabchan ustoz Bahodir Tursunovich Yo'ldoshevning yorqin xotirasi biz ijodkorlar, yoshlar hamda barchamizning qalblarimizda abadiy joy oldi.

Zoir O'ROQOV,
"San'atshunoslik"
yo'nalishi 1-kurs talabasi

Kitob javoningizga

«O'GAY ONA» NI O'QIB...



8-sinfligimda Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona" romanini o'qigan edim. To'rt yildan keyin bu kitob yana qo'limga tushdi. Qarabsizki, menda bu haqida fikrlarim bir dunyo: avvalgi o'iganlarim bir-bir yodimga tushaverdi. Ammo inson ulg'aygani sari bu kitob ichidagi har bir jarayonni yanada chuqurroq tushunaverar ekansiz...

Asarning bosh qahramoni 19 yoshli Fotima o'zidan ancha yoshi kata, ikki bolali erkakka turmushga chiqadi. Fotimaning ikki yetim bor farzandi bor erkakka turmushga chiqishi, yetimlarni hech kimdan kam qilmay parvarish qilishi va ibratli hayotiga bag'ishlanadi. Ho'sh, uni bunday qurbonlikka nima majbur qildi? Gulday yoshligini o'ziga munosib tarbiyali, bilimli, yosh yigit bilan o'tkazsa ham bo'ladi? Bu bilan biz uning eri o'ziga munosib emasdi, degan fikrni yiroqman.

Fotimaning qo'shnisi Ismoil uch yoshida onasidan yetim qoladi. Keyingi hayoti esa o'gay onasining zulmi ostida o'ta boshladi. Ayniqsa, singlisi Salima tug'ilganidan so'ng ikkisiga bo'lgan ayro munosabat Ismoilning dardiga dard qo'shadi. Hali murg'ak bolaning ushbu yoshida ko'rgan azoblariga hammamiz achinamiz. Shu o'rinda Fotima ona ham uning ko'nglini ozgina bo'lsada ko'tarish uchun qo'lidan kelgan yaxshiliklarni qiladi. Biroq bir bolaning azobli kechmishlari yoshgina qizning birdaniga ikki farzandning onasi bo'lishiga to'laqonli sabab bo'la olarmikan? Ha, bu haqiqatga yaqin sabab. Aslida, Fotimaning yetimlarga bu qadar rahmi kelishiga undagi diniy bilimlar,

islomiy qarashlar taqozo etmaganmikin? Mana asarning mohiyati, yozuvchining bu asarni yozishdan maqsadi qayerda! Diniy bilimlar haqiqiy insonni tarbiyalovchi, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi shamchiroqdir.

Fotima ona asarda shunday buyuk ayol sifatida tasvirlanadiki, asarda bayon etilgan bir vaziyatda, menimcha, farzandning haqiqiy onasi ham bunday yo'l tutishi mushkul. Ikki yetim farzandning onasiga aylangan Fotima o'zi ham qiz farzandli bo'ladi, kunlarning birida bir necha oylik bo'lgan qiziga katta "o'gay" qizi qarab o'tirgan edi. Qizaloq yig'lab qolgan go'dak og'ziga o'zi yeb o'tirgan no'xatdan bir donagina soladi. Hali ona sutidan bo'lak narsani o'g'ziga olmagan chaqaloq tiqilib, o'lib qolishiga bir bahya qoladi. Buni ko'rib Fotima jaxl ustida qizaloqqa tarsaki tushirib yuboray deydi, lekin ilohiy bir kuch bilan o'zini bu ishdan to'xtatadi, qizaloqqa qo'l ko'tarmaydi. E'tibor bering, bunday vaziyatda, hatto, chin ona ham o'zini tutib turishi mushkuldir.

Xulosa qilib aytganda, men bu romanni asosan balog'at yoshiga to'layotgan qizlarimizga ko'proq o'qishni tavsiya qilaman. Bu romanni o'qigan inson albatta o'ziga xulosa qiladi, asardagi ayrim xatoliklarga aslo yo'l qo'ymaydi. Agar hayotingizda mana shunga o'xshash voqealar sodir bo'lsa, albatta, qahramonimiz rolini ijro eting.

Ra'no KARAMOVA,
"San'atshunoslik"
yo'nalishi 1-kurs talabasi

// She'riyat bo'stoni

ONAJONIM

Yo'llaringa chiroq bo'lgan
Ko'zlarimga qaroq bo'lgan,
Chorlaguvchi mayoq bo'lgan
Onajonim!

Mehri oftobday muloyim,
Qalbi muhabbatga boyim,
Xavotiri bo'ldim doim,
Onajonim!

Qalb qo'rin munchoqday tizib,
Umr berdi jondan uzib,
Borin berdi o'zdan kechib
Onajonim!

MENING QALBIM

Guldek nozik, guldek mayin,
Harir, sohir ipakdayin,
Hatto, uni hech kim sezmas,
Borligi borliqqa tayin.

Barchaga yaxshilik qilgan,
Faqat mehr uya qurgan,
Shu joyda boshqa ko'z ochib,
Olamni shu ko'z ochib ko'rgan.

U keng manzil, cheki yo'qdir,
Araz, gina, keki yo'qdir,
Dunyolardan kengroq, biroq,
Bu dunyoda tengi yo'qdir.

Sevara NURMATOVA,
"San'atshunoslik"
yo'nalishi 2-kurs talabasi

IJODIDAN

Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri opera va balet san'ati sohasidagi yurtimizning asosiy ma'lum va mashhur teatri hisoblanadi. Uning jamoasi ko'plab jahonga mashhur balet spektakllarini tomoshabinlarga namoyish etib kelmoqda. Bulardan biri qadimgi hind shoiri Kalidasaning "Shakuntala" dramasi va I.V.Gyotening "Xudo va bayaderka" asarlari asosida ishlangan ko'p yillardan beri tomoshabinlar sevib tomosha qiladigan balet spektakli "Bayaderka"dir.

"BAYADERKA"

BALETI HAQIDA TAASSUROTLARIM

U ilk bor 1877-yil kompozitor Lyudvik Minkus musiqasiga xoreograf Marius Petipa tomonidan Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg Katta teatri sahnalashtirilgan. Balet 3 akt va 5 sahnadan iborat bo'lib, u hind afsonasiga asoslangan holda yaratilgan balet asari hisoblanadi. Hozirda Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri ish faoliyatini olib borayotgan Rossiya Federatsiyasi xalq artisti Andris Liyepa yangi talqinida 2019-yil aprel oyida "Bayaderka" baletining premyerasi bo'lib o'tdi va hozirgi kungacha o'zbekistonliklar va xorijiy tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Bosh qahramonlar rolini Nikiya bayaderka — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nodira Hamrayeva,

— Ulug'bek Olimov, buyuk brahman — Andrey Nimirovskiy, faqir Magedaveya — Ravshan Choriyev, Roja Dugmanta — Zamir Fazlutov, Rojaning qizi Gamzati — Madina Yusupovalar ijro etib kelishmoqda. Shu yilning fevral oyida menga ushbu yorqin asar, ya'ni baletni teatr sahnasida ko'rish nasib etdi. Bu baxtsiz ammo go'zal sevgi haqidagi spektakl xoreografiya, musiqa, ssenografiya va kostyumlar tomoshabinni sharqona hissiyotlar, hayollar, muhabbat va orzular dunyosi insonni jalb qiladi. Ayniqsa Nodira Hamrayeva ijrosidagi o'ziga xos noziklik, nafasot, yengil harakatlar hech bir tomoshabinni e'tiborsiz qoldirmadi. Bayaderka obrazini ochib berishda sharqona liboslar ham katta ahamiyat kasb etgan. Bunda Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan rassom Vyacheslav

Okunovning xizmati juda katta. Har bir obrazning liboslarida o'ziga xos yorqin va nafis matolardan foydalanilgan. Obrazlarning yana-da chiroyini ochib berishda aksessuarlar ham did bilan tanlangan. Ajoyib raqqos Solor — Ulug'bek Olimov o'zining mahoratli sakrash texnikasi bilan meni o'ziga jalb qildi. Andrey Nemerovskiy buyuk Brahman rolini o'zining yuz ifodasi, ya'ni mimikasi va keskin qo'l harakatlari orqali ochib berdi. Madina Yusupova Gamzati partiyasida yorqinligi, hissiyotga boyligi va malikalarga xos qat'iyati bilan esda qoldi. Uning otasi Roja rolini yakkaxon — solist Zamir Fazlutov viqori, o'tkir qarashlari va zodagonlarga xos xarakteri orqali tomoshabinlarga yetkazib bera oldi. Albatta kordebalet ham spektaklga o'zgacha ruh baxsh etgan. Unda xoreografiya maktabining yosh va intiluvchan o'quvchilari ishtirok etishdi. Lekin kamchiliklarga qaramasdan yosh iste'dod egalari raqslarini yaxshi ijro etishga harakat qildilar. Buning uchun ularga har qancha minnatdorlik bildirsak arziydi. Chunki bu iste'dodli yoshlar teatrning, qolaversa o'zbek baletining kelajagidir. Butun romantik balet voqealarini balet artistlari raqs tili orqali ochib berishdi. Aktyorlarning ijrosi, ularning liboslari va ayniqsa grimmlari yuz ishoralarini tomoshabinlarga yetkazib berishda katta yordam berdi. Ammo sahna dekoratsiyalari o'sha davrni, hind diyorini to'liq tasvirlab bera olmadi. Biroq, bu kamchiliklarni a'lo darajada ijro etilgan musiqa to'ldirdi. Bu balet spektaklida o'ziga meni eng ko'p jalb qilgani bu shubhasiz dirijyor Bobomurod Hudoyqulov boshchiligidagi orkestr va uning sehrli musiqasi, yoqimli ohanglari hamda mahoratli ijrosi bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ushbu baletni tomosha qilganimgan so'ng mening balet san'atiga bo'lgan qiziqishim, ijrochilarga esa hurmatim yana-da ortdi. Bunday taassurotlarni qoldirgan teatr truppasiga va rahbariyatiga o'z tashakkurimni bildirdim. Ijodlarida ulkan parvozlar tilab qolaman.

Shukrona KAMOLIDDINOVA,
"San'atshunoslik"
yo'nalishi 2-kurs talabasi



TIL BILGAN — EL BILADI

San'atshunos nafaqat san'atning barcha turlarini, balki xorijiy tillarni ham bilishi kerak nazarimda. Bugungi kunda, ingliz, rus, xitoy, koreys tillari hozirgi kunda dunyo tillari orasida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Shunga ko'ra har bir inson o'z sohasi bilan bir qatorda shu tillarning hech bo'lmasa ikkitasini mukammal bilishi maqsadga muvofiqdir.



Ushbu fikrimni bir misol tariqasida izohlaydigan bo'lsam, hozirda biz bo'lajak san'atshunos sifatida talabamiz. Hamda tabiiyki o'z sohamiz haqida ko'proq o'qishimiz izlanishimiz kerak. Afsuski hozirda ma'lumotlarning ko'p qismi o'zbek tilida emas, balki boshqa tillarda kengroq va to'liqroq berilgan.

Sohamizga doir qo'shimcha ma'lumotlarning aksariyat qismi rus yoki ingliz tillarida nashr qilingan yoki internet sahifalariga joylangan. Ko'pgina baletmeyslrlar, xoreograflar hayoti haqidagi ma'lumotlar aynan ingliz yoki rus tillarida keng yoritilgan. Ba'zi baletlarning tarixini, librettolarini o'zbek tilida topish mushkuldir.

Masalan "Humo", "Bog'chasaroy favvorasi", "Bukri toychoq" va shunga o'xshash yana bir qancha baletlar tarixiyu, librettosi haqidagi ma'lumotlarni o'zbek tilida topish mushkul. To'g'ri,

hozirgi kunda turli matnlarni istalgan tilga tarjima qilib beruvchi dasturlar ishlab chiqilgan. Biroq bu kabi "tarjimonlar" matni so'zma-so'z, mazmunan to'g'ri tarjima qilolsada, uning ta'sirchanligini tub mohiyatini, asl mazmuni mujmal tushunarsiz shaklda tarjima qilib beradi.

Inson qancha ko'p o'qisa, izlansa, shuncha rivojlanadi, o'sadi. Hamda kelajakda biron bir konferensiya, seminarlarda xorijlik san'atshunoslar bilan bir davrada o'tirib suhbatalashishi, minbarda turib nutq so'zlashi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda san'atshunos hech qanday tarjimonlarga ehtiyoj sezmaydi.

Kelajakda biron bir tashkilotga, masalan san'at muzeylariga, teatrlarga shu kabi san'at dargohlariga ishga kiramiz. Bunday muassasalarga bizning milliy san'atimiz, milliy madaniyatimizni o'rganish istagida keluvchi san'atshunoslarga duch kelishimiz tabiiy

holdir. Sababi hozirda bizning milliy san'atimizga, madaniyatimizga xorijiy davlatlarda qiziqish yuqori. Ular bizning yurtimizga atayin bizning buyuk san'atimizni, beqiyos madaniyatimizni ko'rib o'rganish uchun tashrif buyurmoqdalar. Mana shunday vaziyatlarda tarjimonlardan farqli o'laroq san'atshunos o'z fikrini yanada chuqur va teran anglagan holda tinglovchiga ham xuddi shunday ifodalalay oladi.

Xoreograf talqinida oladigan bo'lsam, ular balerinalarning, raqqos va raqqosalarning imo-ishoralarini, harakatlarni, umuman raqs, klassik raqs haqida chuqur ma'lumotga ega. Ular tarjima qilayotganlarida albatta bu jihatlarga ham ahamiyat bergan holda, ta'sirli chuqur mazmun ila ifodalay oladi. Biroq tarjimonlarning ko'p qismi, san'at haqida, klassik raqs, balet haqida unchalik ko'p ma'lumotlarga ega bo'lmasliklari

mumkin. Uning fikrlari tarqoq, yoxud tinglovchiga san'atshunos ifodalay olganchalik, ta'sirli bo'lmasligi mumkin. Tilshunoslar, tarjimonlar san'atni o'sha tarjima qilayotgan tiliga o'gira olishi va shu tilda bema'lol ravon gapira olishi mumkin, biroq aynan san'atshunos mutaxassis kabi ifodalab, tinglovchiga u darajada ta'sirli ifoda eta olmaydi.

O'yilashimcha, xorijiy tillarning kuchi orqali dunyo san'at yangiliklari va kashfiyotlaridan boxabar bo'lmog'imiz va uni san'atshunos sifatida xalqimizga yetkazib borishimiz lozim. Shu bilan bir qatorda milliy san'atimizga mos xususiyatlardan unumli foydalangan holda, yurtimizda milliy san'atimizni rivojlantirishimiz mumkin.

Nozima PO'LATOVA,
"San'atshunoslik" yo'nalishi
1-kurs talabasi

“LAZGI” ASHULA VA RAQS ANSAMBLI: TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Markaziy Osiyodagi eng mashhur guruhlardan biri — “Lazgi” ansambli 1957-yilda O‘zbek davlat filarmoniyasi qoshida tashkil etilgan. Betakror san’atkor, O‘zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov rahbarligi davrida ansamblda O‘zbekiston xalq artistlari Komuna Ismailova, Ro‘za Sapayeva, Sherozi ota, Nurmamat ota, Fozil Xarratov, Muhammadjon Mirzayev, Otaxon Matyoqubov, Najot To‘raxo‘jayev kabi taniqli ustozlar faoliyat yuritishgan.

Taniqli olim Boboxon Muhammad Sharif to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Ansambllning rahbari sifatida Komiljon Otaniyozov faqat ishchan tashkilotchi, mohir sozandagina emas, balki raqs san’atini ham mukammal biladigan ustoz sifatida o‘zini ko‘rsatdi. Filarmoniyada yakkaxon xonanda bo‘lgan yillarida ham, ansamblga rahbarlik qilgan vaqtlarida ham u qadimiy raqs san’atini tiklashga katta e’tibor berdi”.

1968-yili “Lazgi” ansamblini qaytadan tuzish taklifi bildiriladi. O‘zbekiston xalq artisti, tajribali Gavhar Rahimova ansamblga badiiy rahbar etib tayinlanadi. U ham o‘zbek san’atining qadimiy yorqin milliy xususiyatlarini imkon darajasida yuzaga chiqarishga harakat qildi. Ansamblga turli yillarda O‘zbekiston xalq artisti Ortiq Otajonov, O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan artist Ravshanoy Sharipovalar rahbarlik qilishdi. Maqomlar, suvoralar qatorida zamonaviy ashula va raqslarni mukammal

ijro usullarini yaratishga jiddiy e’tibor berildi.

Keyinchalik, 1989 yildan 2007 yilgacha “Lazgi” ansambliga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rahmatjon Qurbonov rahbarlik qildi. Otamurod Hojiyev, Rashid Rahmonov, Gulimmat Sobirov, Nurilla Jumaniyozov, Mavluda Oynaqulova, Urbigul, Olmagul Shuriboyeva, Nurjahon Sattorova, Nazokat Jabborova, Hasan Karimov, Otamurod Bekjonov, Gulsara Yoqubova, Feruza Solihova, Ilgiza Zaripova, Zamira G‘afforova kabi hofizu raqqosalar o‘z san’atlari bilan elga tanildilar. Zuhra G‘iyosova sahnalashtirgan raqs bilan “Lazgi” ansambli Tunis, Marokash, Iordaniya, Misr, Hindiston, Malayziya, Efiopiya, Xitoy, Janubiy Korea, Rossiya, Isroil, Germaniya, Fransiya, Belgiya, Chexoslovakiya, Polsha, Turkiya singari mamlakatlarda konsert dasturlarini namoyish etdi.

“Lazgi” ansambli faoliyatida 2015 yil

5 yanvardan yangi bosqich boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qarori bilan “Lazgi” ashula va raqs ansambli qaytadan tashkil qilindi. Unga O‘zbekiston xalq artisti Og‘abek Sobirov badiiy rahbar, Xorazm raqs ustalaridan biri, mahoratli pedagog Shonazar Botirov bosh baletmeyster etib tayinlandi. Bugungi kunga qadar mazkur ansambl bir qator hukumat tadbirlari, gastrol safarlari va konsert dasturlarida qatnashib kelmoqda.

Hozirgi kunda ansamblda Og‘abek Sobirov, Feruzbek Normetov, Anvar Sobirov, Xurshid Sobirov, “Nihol” Davlat mukofoti sovrindorlari Rohila Ro‘zimova, Dilfuza Qobilova va boshqa iste’dodli

san’atkorlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar. Raqs jamoasida 12 nafar raqqosa va 8 nafar raqqos hamkorlik qiladi. Uning repertuari juda ham boy va rang-barang bo‘lib, shu kungacha mahoratli baletmeyster Shonazar Botirov tomonidan 100 dan ortiq raqs sahnalashtirildi. Bular ichidan meros qo‘shiqlarga, ya’ni “Gusfand”, “Orazibon”, “Norim-norim”, “Ushlini iforisi”, “Xorazm lazgisi”, “Qayroq lazgisi”, “Dutor lazgisi”, “Masxaraboz lazgisi”, “Garmon lazgisi” va “Yallali raqs” hamda boshqa milliy va zamonaviy raqs shular jumlasidandir.

Gulmira QURBONOVA,
“San’atshunoslik”
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi



IKKI DIL...

Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatrida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Xoreografiya jamoalari rahbari” 4-kurs talabalarining bitiruv malakaviy imtihoni bo‘lib o‘tdi.

Uning birinchi qismida A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani asosida sahnalashtirilgan “Ikki dil” raqs-spektakli, ikkinchisida esa dunyoga mashhur raqqosa Aysedora Dunkan hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “ISADORA” raqs-spektakli va yakunda “Raqs guldastasi” namoyish etildi.

Fan o‘qituvchilari I.Gorlina, G.Usmonova hamda kurs rahbari Sh.Xudoyazarova boshchiligidagi tayyorlangan ushbu dastur imtihonga tashrif buyurgan faxriy ustozlar va barcha mehmonlarga

manzur bo‘ldi. Raqs-spektaklardagi tanlangan mavzular, ulardagi dramatism, talabalarning betakror ijro mahorati olqishlarga sabab bo‘ldi.

Konsertga akademiya tomonidan doimiy tarzda tashkil etilgan “Mahallabay” madaniy-ma’rifiy, targ‘ibot tadbirlari davomida Yakkasaroy tumani “Bog‘isaroy” va “Konstitutsiya” MFYda istiqomat qiluvchi xotin-qizlar, raqs san’atiga qiziquvchi yoshlar ham taklif qilingan edi. Ana shunday yoshlar orasida Xoreografiya akademiyasida tahsil olish istagini bildirganlar ham bo‘ldi. Shuningdek, bu kabi konsert-spektakllar, mazmunli, maroqli tadbirlar ko‘plab tashkil etilishi istagini bildirishdi.

O‘zDXA Matbuot xizmati



RAQS OLAMI



MUASSIS:

O‘zbekiston davlat
xoreografiya
akademiyasi

TAHRIR HAY’ATI:

Mirmuhsin G‘OFUROV
Jahongir G‘ANIYEV
Hulkar HAMROYEVA
Matluba MURODOVA
Dildora QOSIMOVA
Po‘lat TOSHKENBOYEV
Venera ABLIYAYEVA

BOSH MUHARRIR:

Shuhrat TOXTASIMOV

Bizning manzil:

100031, Toshkent shahri,
Yakkasaroy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko‘chasi,
103-uy.

NASHR UCHUN MAS’UL
To‘maris A’ZAM

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Nashr indeksi: 145
Ofset usulida bosildi.
Qog‘oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:
18:00
Bosishga topshirildi: 21:25
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda.

Sahifalovchi:
Dilmurod DO‘STBEKOV

Gazeta tahririyat kompyuterida
terildi va sahifalandi.

“NISO-POLIGRAF”
MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq
tumani, “Oq ota” MFY, Mash’al qo‘rg‘oni,
Markaziy ko‘chasi, 1-uy.

Buyurtma: _____
Hajmi 1 bosma taboq.